O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI MIRZACHO’L TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 20 - aprel 106-3-51-Q/22 Mirzacho‘l tuman hokimligi

Mirzacho`l tumani Avtoshohbekati ro`parasiga 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo’l belgisini o’rnatish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi “Yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3127-sonli, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi “O’zbekiston Respublikasi yo’l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 377-sonli qarorlari hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 fevralda “Xavfsiz va ravon yo’l” tamoyili asosida avtomobil yo’llarida inson xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman IIBning 2022 yil 24 martdagi 40/39-sonli xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Ichki ishlar bo’limining 2022 yil 24 martdagi 40/39-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mirzacho`l tumani Mirzacho`l tumani Avtoshohbekati ro`parasiga 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo’l belgisini o’rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman Moliya bo’limi (B.Boboev)ga;

yuqoridagi ko’rsatilgan yo’l belgisini o’rnatish uchun kerakli mablag’larni

ajratilishini ta’minlasin va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hisob raqamiga o’tkazib berilsin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Ergashev)ga tuman IIB YXHB boshlig’i (F.Mirzabekov) bilan birgalikda;

- 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo’l belgisini o’z manziliga belgilangan tartibda o’rnatish va harakat havfsizligi ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari S.Siddiqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Axmedov**